



Irodaxon KARIMOVA

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD

E-mail:iro.fiziolog@gmail.com

O'zMU qoshidagi Biofizika va biokimyo instituti Molekulyar biofizika laboratoriya mudiri, b.f.d., N.Ergashev taqrizi asosida

EFFECT OF INDUVID AND KAEPFEROL FLAVANOIDS ON LIPID PEROXIDATION PROCESSES IN LIVER MITOCHONDRIA

Annotation

Kaempferol and induvid flavonoids had an inhibitory effect on lipid peroxidation processes and exhibited unique antioxidant properties. From the results obtained for POL, it can be seen that kaempferol showed the greatest antioxidant activity, whereas the individual showed the least antioxidant activity. When studying the effect of kaempferol and induvid on the mitochondrial megapore, despite the sharp difference in their antioxidant properties, it was found that both flavonoids inhibit the mitochondrial megapore to a certain extent, although induvid had a slightly weaker effect on the mitochondrial megapore than kaempferol. Kaempferol flavonoid has been found to partially affect oxidative phosphorylation in mitochondria.

Key words: mitochondria membrane potential, lipid peroxide oxidation, induvid, cyclosporine, antitoxic, kaempferol, flavonoid, oschozone.

ВЛИЯНИЕ ФЛАВАНОИДОВ ИНДУВИДА И КЭМПФЕРОЛА НА ПРОЦЕССЫ ПЕРЕКИСНОЕ ОКИСЛЕНИЕ ЛИПИДОВ В МИТОХОНДРИЯХ ПЕЧЕНИ

Аннотация

Кемпферол и индувид flavonoids оказывали ингибирующее действие на процессы перекисного окисления липидов и проявляли уникальные антиоксидантные свойства. Из результатов, полученных для ПОЛ, видно, что кемпферол проявлял наибольшую антиоксидантную активность, тогда как индувид проявлял наименьшую антиоксидантную активность. При изучении действия кемпферола и индувида на митохондриальную мегапору, несмотря на резкое различие их антиоксидантных свойств, было установлено, что оба flavonoids в определенной степени ингибируют митохондриальную мегапору, хотя индувид оказывал несколько более слабое влияние на митохондриальную мегапору, чем кемпферол. Было обнаружено, что кемпферол flavonoid частично влияет на окислительное фосфорилирование в митохондриях.

Ключевые слова: мембранный потенциал митохондрий, перекисное окисление липидов, индувид, циклоспорин, антитоксик, кемпферол, flavonoid, поджелудочная железа.

INDUVID VA KEMPFEROL FLAVANOIDLARNING JIGAR MITOXONDIYASIDAGI LIPIDLARNING PERIKISLI OKSIDLANISH JARAYONLARIGA TA'SIRI

Annotatsiya

Kempferol va induvid flavonoidlari lipidlarning perekisli oksidlanish jarayoniga ingibirlovchi ta'sir ko'rsatib, o'ziga xos antioksidantlik xossasini namoyon qildi. LPO bo'yicha olingan natijalardan ko'rinish turibdiki, kempferol eng yuqori antioksidantlikni namoyon qilgan bo'lsa, induvid past antioksidantlikni namoyon qilgan. Kempferol va induvidni mitoxondrial megaporaga ta'siri o'rganilganda esa ularning antioksidant xossasi keskin farq qilishiga qaramay, mitoxondrial megapora kempferolga nisbatan induvidda sustroq ta'sir ko'rsatgan bo'lsada, ikkala flavonoid ham mitoxondrial megaporani ma'lum miqdorda ingibirlashi aniqlandi. Mitoxondriyalardagi oksidlanishi fosforlanish jarayoniga kempferol flavonoidi induvidga qisman bo'lувчи ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Kalit so'zlar: mitoxondriyalar membrana potensiyali, lipidlarning perekisli oksidlanishi, induvid, siklosporin, antitoksik, kempferol, flavonoid, oshqozon osti bezi.

Kirish. Organizmda kechadigan har qanday kasallik oqibatida erkin radikallarning hosil bo'lishi kuchayib ketadi. Tibbiyotda qo'llanib kelinayotgan dorivor moddalar orasida o'simliklardan ajratilgan biologik faol birikmalarining ahamiyati katta bo'lib, bular yuqori fiziologik faolligi, farmakologik ta'siri bilan tavsiflanadi. Shuning uchun turli xil o'simliklar ustida keng ko'lamli tadqiqotlar o'tkazilib va ularning turli kasalliklarga qarshi ta'siri o'rganilib kelinmoqda.

Keyingi yillarda Respublikamizda va dunyoda turli kasalliklarni, jumladan diabet, saturnizm, yurak-qon tomir, rak, autoimun, oliy va markaziy asab tizimi kasalliklarni davolashda yangi samarali antidiabetik, kardioprotektor va shunga o'xshash farmakologik vositalarni yaratish, ularni tibbiyotga tadbiq etish va davlatimizda ekspert saloxiyatini yo'liga qo'yish dolzarb mavzulardan bira bo'lib qolmoqda. Turli kasalliklarni davolashda yaratilayotgan dori vositalari orasida nisbatan kam nojuya ta'sirga ega bo'lgan o'simliklardan ajratilgan flavonoidlarga talab yildan-yilga ortib bormoqda. O'simliklardan olingan moddalar turli kimyoviy usul bilan olingan preparatlarga nisbatan havfsizroq va samaraliqoq hisoblanadi. Olingan flavonoid moddalar orasida polifenol birikmalar o'zining noyob hususiyatlari bilan ajralib turganligi uchun ham ularga katta e'tibor berilmuoqda. Shu boisdan polifenol moddalarini ichak va oshqozon osti bezi hujayrasi, mitoxondriyalarga molekulyar darajada ta'sir mexanizmlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega xisoblanadi [1,2,3,4].

Mavzuga oid adabiyotlar taxlili. O'simliklardan olingan biologik faol moddalarini o'rganishga tobora qiziqishni ortib borishi, ularni biologik va farmakologik jihatidan xilma-xilligi bilan bog'liqdir. Bu birikmalarning inson organizmiga

ko'rsatadigan ta'siri turlicha bo'lib, ularning biologik ta'sirini tartibga solishda hujayraning redoks regulatsiyasi, fermentlar va retseptorlarning faolligini modulyatsiya qiluvchi membranalari borligi bilan izohlanadi. Bugungi kunda ushbu birikmalar inson organizmiga kapillyarlarini mustahkamlovchi, spazmolitik, stressga qarshi, yallig'lanishga qarshi, antibakterial, antiviral, yaraga qarshi, antitoksiq, antiallergik, antiaterosklerotik, antiaritmik, immunomodulyator, antikarsinogen, nefroprotektiv, estrogenga o'xshash, hepatoprotektiv ta'sirga ega. O'simliklardan olingen biologik faol moddalar orasida flavanoidlar alohida o'rinni tutadi. Flavonoidlarning aniqlangan xossalari sintetik analoglardan farqli o'laroq, jiddiy yomon ta'sirga ega bo'limgan dori vositalari sifatida foydalanish uchun keng imkoniyatlarni ochadi. Shu munosabat bilan biz ayrim flavonoidlarning o'simlik tanasidagi fiziologik roli bo'yicha mayjud ma'lumotlarni tahlil qilishga xarakat qildik [1,2,3,4]. Ushbu birikmalarning muhim biologik ahamiyati, ularning o'simliklardan olinishidir. Ko'pgina flavonoidlar o'simliklarning eng faol ishlaydigan organlarida ya'ni barglari, gullari, mevalari shuningdek, himoya funksiyalarini bajaradigan ayrim to'qimalarda topilgan. O'simliklarning turli organ va to'qimalari bir-birdan faqatgina miqdori jihatidan emas, balki flavonoidlarning sifat tarkibi jihatidan ham farq qiladi [5].

Kempferol ($C_{15} H_{10} O_6$) flavonoidi o'simliklardan olingen bo'lib, tashqi ko'rinishi sariq kristal moddadir. O'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, kempferol yallig'lanishga qarshi, antitumor, antimikrobiyal, antigistamin va kardioprotektiv ta'sirga ega. Har qanday antioksidant singari, modda ham organizm hujayralarini erkin radikallar ta'siridan himoya qiladi va qarish jarayonini sekinlashtiradi. Kempferol qarish pigmenti bo'lgan lipofussinning tanada to'planishiga to'sqinlik qiladi, odatda teri u pigment ta'sirida elastikligini, tarangligini yo'qtodadi va pigment dog'lari bilan qoplanadi. Kempferol yoshlikni uzaytirish uchun samarali dori hisoblanib, tanadagi "oksidlanish stressini" kamaytiradi, himoya funksiyalarini oshiradi va metabolizmni tezlashtiradi [7,8,9]. Kempferol siyidik tizimining turli kasalliklarini davolash uchun dorilar tarkibiga kiritilgan samarali diuretik moddadir. Ushbu modda tanadagi suv muvozanatini normallashtiradi, ortiqcha suyuqlikni chiqarilishiga yordam beradi, shishni yengillashtiradi va buyraklarda qon aylanishini osonlashtiradi. U diabetni kompleks terapiya qilishda ishlatilib, insulin bilan birqalikda qondagi glyukoza miqdorini pasaytiradi va bemorlarning ahvolini yaxshilaydi. Flavonoid kuchli antioksidant ta'sirga ega bo'lib, erkin radikallarning organizm hujayralariga salbiy ta'sirini kamaytirib, tabiiy immunitetni oshiradi. Kempferolga boy bo'lgan oziq-ovqatlarni iste'mol qilish yurak-qon tomir kasalliklarini rivojlanish xavfini kamaytiradi. Flavonoid qon tomirlari, kapillyarlarning devorlarini mustahkamlaydi, yurak mushaklaridagi tomirlarning o'tkazuvchanligini yaxshilaydi va miyokarddag'i metabolik jarayonlarni rag'battantiradi. Kempferol samarali diuretik bo'lib, u siyidik tizimining turli kasalliklarini davolash uchun preparatlar tarkibiga kiradi. Ushbu modda tananing suv muvozanatini normallashtiradi, ortiqcha suyuqlikni chiqib ketishiga yordam berib, shishni yengillashtiradi va buyraklarda yukni kamaytiradi [10,11,12].

Olimlar "kempferol" mahsulotlarini qo'llash va yurak-qon tomir kasalliklarini rivojlanish xavfini kamaytirish o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikni aniqladilar. Kempferol muddasi yurak to'qimalarini zararli ta'sirlardan himoya qiladi, miyokarddag'i metabolitik jarayonlarni yaxshilaydi va yurakni oziqlantiradigan tomirlarning o'tkazuvchanligini ta'minlaydi. Ammo flavonoid kempferolning asosiy kuchi uning saratonga qarshi xususiyatlaridir. Bu hujayralardagi yog' kislotalarining sintezini pasaytiradi va bu saratonning ayrim turlarining rivojlanishini kamaytiradi. Kempferolni tabiiy shaklda ham, parhez qo'shimchalarida ham mutnazam ravishda ishlatish tuxumdon va o'pka saratonining oldini olishi mumkin. Sigaret chekuvchilar uchun "yonib turgan" antioksidantga e'tibor berish ham muhimdir - kversetin va miritsetin bilan birqalikda u oshqozon osti bezi saratoni rivojlanish ehtimolini kamaytiradi. Kempferol - boshqa antioksidantlar bilan solishtirganda tabiatda juda ko'p uchramaydi. Tanani flavonoidlar bilan ta'minlashning eng foydali usuli bu mutnazam ravishda choy ichish, meva va sabzavotlardan ko'proq iste'mol qilishdir [7,8,11].


Kempferol oksidlovchi stressni to'xtatishda, yallig'lanishga qarshi va antiallergik ta'sirga ega, deb taxmin qilinadi, aterosklerozning rivojlanishiga qarshi kurashadi. Shuningdek, u neyroprotektiv ta'sirga ega bo'lib, Parkinson kasalligining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Kempferol oshqozon osti bezi hujayralarining yo'q qilinishini oldini oladi surunkali giperqlikemiyani oldini oladi. Tajribalarda kempferol proadipotsitlarning differensiatsiyasini tartibga soladi [6,7]. Biz o'rganayotgan ikkinchi Induvid muddasi yangi sintez qilingan bo'lib, uni Fe^{2+} /askorbat bilan chaqirilgan mitoxondriyalardagi lipidlarning perekisi oksidlanish jarayoniga ta'siri ilk bor tajribalarimizda kemferolga solishtirilgan holda o'rganildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotlar davomida ishlatilgan kalamush oshqozon osti bezi mitoxondriyalari ikki bosqichda – differensial sentrifugalash usulida ajratildi. Oshqozon osti bezi mitoxondriyalarda lipidlarning perekisi oksidlanishi *in vitro* usulda Fe^{2+} /askorbat tizimi orqali aniqlandi. Oshqozon osti bezi mitoxondriyalarda kalsiya bog'liq siklosporin A-sezgir pora holati mitoxondriyalarning kalsiy ionlari ta'sirida chaqirilgan holda flavonoidlarning ta'siri o'rganildi. Bundan tashqari, kempferolning oshqozon osti bezi mitoxondriyalari oksidlanishli fosforlanish jarayoniga ta'siri o'rganildi.

Taxlil va natijalar. Lipidlarning perekisi oksidlanishini kempferol va induvid moddalari bilan korreksiysi solishtirilgan holda o'rganildi. Organizmning turli patologik holatlarida hujayra mitoxondriyasi membranasining fiziologik holati aniqlayotganda turli xil ionlarga nisbatan mitoxondriyalar membranasidagi o'tkazuvchanlik va lipidlarning perekisi oksidlanish holatlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega xisoblanadi. Buning asosiy sababi mitoxondriyalardagi antioksidant tizimning o'zgarishi natijasida organizmda turli xil qaytmas jarayonlarga olib kelishi mumkin. Buning natijasida biomembranalarning faoliyatи buzilishi natijasida mitoxondriyalardagi oksidlanish-fosforlanish jarayonlari o'zgaradi hamda erkin radikallar hosil bo'lishining muvozanati buziladi.

Olingen natijalardan shuni aytishimiz mumkinki, o'tkazilgan *in vitro* tajribalarda kempferol flavonoidining turli konsentratsiyalari olingen bo'lib, uning ta'sirida Fe^{2+} /askorbat bilan chaqirilgan mitoxondriyalar bo'kishiga ingibirlovchi ta'sir etganligi aniqlandi. O'tkazilgan tajribalarda inkubatsiya muhitiga Fe^{2+} /askorbat qo'shish natijasida mitoxondriyalarda lipidlarning perekisi oksidlanishi jarayonini keskin ortishiga sabab bo'ldi. Tajribalarda Fe^{2+} /askorbat tizimi chaqirgan LPO jarayoniga kempferol va induvidning turli konsentratsiyalarini ta'sir ettirish orqali ularning membranafao'l xossaga ega ekanligi aniqlandi. Kempferol 0,5 mkM konsentratsiyada Fe^{2+} /askorbat yordamida chaqirilgan LPO jarayonini, nazoratga nisbatan, 40,4% ga, 1 mkM konsentratsiyada 72,0% ga, 5 mkM konsentratsiyada esa 80,6% ga, 10 mkM konsentratsiyada 92,7% ga, 15 mkM konsentratsiyada esa 86,2% ga, 20 mkM konsentratsiyada 30,2% ga ingibirlashi aniqlandi (1-rasm).

1-rasm. Fe²⁺/askorbat bilan chaqirilgan mitoxondriyalardagi lipidlarning perekisli oksidlanish jarayoniga kempferolning




Л П О ЖАРАЁНИГА КЕМПФЕРОЛ ФЛАВОНОИДИННИНГ ТАЪСИРИ

ta'siri.

Izoh: Ordinata o'qida - Fe²⁺/askorbat ta'sirida mitoxondriyalar bo'kishi ko'rsatilgan, abssissa o'qida - kempferolning qo'llanilgan konsentratsiyalari ifodalangan. Inkubatsiya muhiti - 125 mM KSI, 10 mM tris-NSI, rN 7,4. (*** - R<0,001; n=4).

Olingan natijalardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, kempferol flavonoidi LPO jarayonini kichik konsentratsiyalarda ingibirlab, yuqori antioksidantlik xossasini, moddani dozasi ortgan sari esa prooksidantlik xossasini namoyon qildi. Keyingi tajribalarimizda ikkinchi modda induvid moddasini turli konsentratsiyalarini Fe²⁺/askorbat yordamida chaqirilgan LPO jarayoniga ta'siri o'rganildi. Individ 0,5 мкМ konsentratsiyada Fe²⁺/askorbat yordamida chaqirilgan LPO jarayonini, nazoratga nisbatan, 3,0% ga, 1 мкМ konsentratsiyada 10,0% ga, 5 мкМ konsentratsiyada esa 14,0% ga, 10 мкМ konsentratsiyada 15,0% ga, 20 мкМ konsentratsiyada esa 19,6% ga, 50 мкМ konsentratsiyada 89,7% ga ingibirlashi aniqlandi (2-rasm).

2-rasm. Fe²⁺/askorbat bilan chaqirilgan mitoxondriyalardagi lipidlarning perekisli oksidlanish jarayoniga induvidning ta'siri.



Л П О ЖАРАЁНИГА ИНДИВИДНИНГ ТАЪСИРИ

Izoh: Ordinata o'qida - Fe²⁺/askorbat ta'sirida mitoxondriyalar bo'kishi ko'rsatilgan, abssissa o'qida - kempferolning qo'llanilgan konsentratsiyalari ifodalangan. Inkubatsiya muhiti - 125 mM KSI, 10 mM tris-NSI, rN 7,4. (*** - R<0,001; n=4).

Demak, induvid flavonoidi kempferolga nisbatan sustroq antioksidantlik xossasini namoyon qilishi ko'rsatildi. Bizga ma'lumki, turli flavonoid moddalar erkin radikallar hosil bo'lishini oldini olib, kislordaning faol shakllari ta'sirini neytrallaydi va lipidlarning periksli oksidlanishiga yo'l qo'ymaydi.

Xulosa va takliflar. O'rganilgan biologik faol birikmalar *in vitro* modelida, mitoxondriyalar membranasida joylashgan Ca⁽²⁺⁾ ga bog'liq siklosporin A-sezgir megapora funksional holatini namoyon bo'lishiда noorganik fosfat ionlari muhim funksiyani bajarib, Ca⁽²⁺⁾ ionlari bilan birligida fosfat ionlari ham mitoxondrial megaporaning fiziologik va disfunktional holatlarini boshqarishda ishtirok etishi aniqlandi. Shu bilan birga kempferol flavonoidi 50 mikro M konsentratsiyada prooksidant faolligini namoyon qildi. Xulosa qilib, kempferol va induvid flavonoidlarning oshqozon osti bezi mitoxondriyaları lipidlarining perekisli oksidlanishiga, kalsiyga bog'liq siklosporin A-sezgir porasiga va oksidlanishli fosforlanish jarayoni, ichak karbogidrazalarining faolligiga ta'sir mexanizmlarini yoritish bilan izohlanadi. Olingan natijalardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, flavonoidlarni organizmga ta'siri to'g'risidagi hozirgi zamon tasavvurlarini boyitadi, flavonoidlardan: kempferol va induvid moddalarini yuqori antioksidant xossasini ko'rsatib bergen holda, ular asosida yangi sitoprotektor, antitoksik vositalar yaratish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

- Мамадалиева Н. И., Мустафакулов М. А., Соатов Т. С. Влияние фактора нервного роста на показатели антиоксидантной системы в тканях мозга крысы //Environmental Science. – 2021. – Т. 723. – С. 022021.
- Ishankhodjaev T. et al. Study on Effects of Liposomal Quercetin on Biochemical Parameters of the Nigrostriatal System of Rats with Experimentally Induced Neurodegenerative Disease //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – С. 6128-6143.
- Мустафакулов М. А., Набиев А. Х., Абдулладжанова Н. Г., Матчанов А.Д., Тухтаева А.С. Изучение антиоксидантной и антирадикальной активности листьев *isatis tinctoria* l //Universum: химия и биология. – 2022. – №. 7-1 (97). – С. 40-44.

4. Тринеева О.В. Методы определения антиоксидантной активности объектов растительного и синтетического происхождения в фармации (обзор). Разработка и регистрация лекарственных средств. 2017, с. 180-197.
5. Макаренко О.А., Левицкий А.П. Физиологические функции флавоноидов в растениях. Физиология и биохимия культурных растений, 2013. – Т. 45. – № 2. – С. 100–112.
6. Малюкова Л.С. Состав и содержание флавоноидов в готовом чае, выращенном в условиях Черноморского побережья Краснодарского края. 2018. С.272-277.
7. Berger A., Venturelli S., Kallnischkies M., Böcker A., Busch C., Weiland T., Noor S., Leischner C., Weiss T.S., Lauer U.M., Bischoff S.C., Bitzer M. Kaempferol, a new nutrition-derived pan-inhibitor of human histone deacetylases // J Nutr Biochem. – 2013. – Vol. 24(6). – P. 977-985.
8. Lin H.Y., Chang S.T. Kaempferol glycosides from the twigs of *Cinnamomum osmophloeum* and their nitric oxide production inhibitory activities // Carbohydr Res. – 2012. – Vol. 364. – P. 49-53.
9. Peng X., Zhang G., Liao Y., Gong D. Inhibitory kinetics and mechanism of kaempferol on α -glucosidase // Food Chem. – 2016. – Vol. 190. – P. 207-215.
10. Wang F., Wang L., Qu C., Chen L., Geng Y., Cheng C., Yu S., Wang D., Yang L., Meng Z., Chen Z. Kaempferol induces ROS-dependent apoptosis in pancreatic cancer cells via TGM2-mediated Akt/mTOR signaling // BMC Cancer. – 2021. – Vol. 21(1). – 396(P. 1-11).
11. Wang S.B., Jang J.Y., Chae Y.H., Min J.H., Baek J.Y., Kim M., Park Y., Hwang G.S., Ryu J.S., Chang T.S. Kaempferol suppresses collagen-induced platelet activation by inhibiting NADPH oxidase and protecting SHP-2 from oxidative inactivation // Free Radic Biol Med. – 2015. – Vol. 83. – P. 41-53.
12. Wang Y., Zhang G., Pan J., Gong D. Novel insights into the inhibitory mechanism of kaempferol on xanthine oxidase // J Agric Food Chem. – 2015. – Vol. 63(2). – P. 526-534.